



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 10 | pp. 50-53 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MINTAQANING IQTISODIY SALOHIYATINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Turayev Og'abek Kaxramonovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch
Davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotasiya. Ushbu maqolada mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshirish bo'yicha olimlarni qarashlari o'rganilgan. Shuningdek, mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilinib, xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: mintaqqa iqtisodiy salohiyati, mintaqaviy rivojlanish, iqtisodiy resurslar, mehnat resurslari, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi, inson kapitali, resurslarning konsentratsiyasi.

Аннотация. В статье рассматриваются взгляды учёных на повышение экономического потенциала региона. Проанализированы факторы, влияющие на повышение экономического потенциала региона, даны выводы и предложения.

Ключевые слова: экономический потенциал региона, региональное развитие, экономические ресурсы, трудовые ресурсы, эффективность использования природных ресурсов, человеческий капитал, концентрация ресурсов.

Abstract. The views of scientists on increasing the economic potential of the region were studied. Also, the factors affecting the increase of the economic potential of the region are analyzed, conclusions and suggestions are given.

Key words: economic potential of the region, regional development, economic resources, labor resources, efficiency of natural resource use, human capital, resource concentration.

KIRISH

Mintaqaning iqtisodiy salohiyati o'zaro bog'liq resurslar, sohalar va imkoniyatlar majmuasidir. Bu ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, qurilish, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarini qamrab oladi. Mintaqani iqtisodiy salohiyati barqaror bo'lishi uchun uning tarkibiy qismlari o'zaro muvozanatda faoliyat yuritishi kerak. Mintaqani iqtisodiy salohiyati bu tabiiy resurslar, ishlab chiqarish, mehnat, investitsiya va innovatsion resurslarning majmui bo'lib, ularni oqilona ishlatish orqali hudud eng yuqori iqtisodiy rivojlanish darajasiga erishishi mumkin. Mamlakatda iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligi xo'jalik mexanizmiga bog'liq. Ushbu mexanizmning mukammal emasligi iqtisodiy salohiyat tarkibiy qismlaridan noo'rin, samarasiz yoki hatto isrofgarchilik bilan foydalanishga olib kelishi mumkin. Mintaqaning iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligi va oqilonaligini baholash hamda uni boshqarish, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'p jihatdan mavjud iqtisodiy salohiyat hajmiga va undan

foydalanish samaradorligiga bog'liq. Mintaqa muammolarining murakkabligi va ko'p qirraliligi iqtisodiy salohiyatdan oqilona va samarali foydalanishning ilmiy-uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish uchun eng muhim zamonaviy yo'nalishlardan biridir. Bunda esa bevosita mintaqalarning iqtisodiy salohiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi turli omillarni hisobga olish va iqtisodiy natijalarga erishishning eng to'g'ri usuli omillardan samarali foydalanishdir. Albatta bunday samardorlikni amalga oshirishda tizimli yondashuv kerak bo'ladi. Mintaqaning iqtisodiy salohiyatining komponentli, funksiyaviy va hududiy tuzilishini o'rganish, ya'ni tizimli yondashuvning samaradorligi tuzilmaviy tahlil va sintez usullaridan foydalanilganda yanada ortadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar tahlil qiladigan bo'lsak D. B. A. Rayzberg, L. Sh. Lozovskiy, Ye.A.Dinnikov, M. Porter, N.O.Ablova, P. Krugman, R. Martin, Sunley, P. C. Folke, **R. Florida** kabi olimlarning tadqiqotlarida resurslardan samarali foydalanish, raqobatbardosh klasterlar yaratish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, kreativ inson kapitalini rivojlantirish va zamonaviy infratuzilmani takomillashtirish bilan bog'liq jarayon sifatida talqin etiladi. Geoiqtisodiy joylashuv, transport-logistika imkoniyatlari, ekologik barqarorlik va hududning tashqi sharoitlarga moslasha olish qobiliyati ham mintaqa salohiyatining asosiy omillari sanaladi. Umuman olganda, mintaqaning iqtisodiy salohiyati — bu resurslar, innovatsiyalar, boshqaruv sifati va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning uyg'unlashuvi natijasida shakllanuvchi kompleks tizimdir. Nihoyat, strategik boshqaruv va samarali menejment tizimini shakllantirish esa barcha jarayonlarni yagona tizimga solib, mintaqaviy iqtisodiy salohiyatni kompleks ravishda oshirishga xizmat qiladi.

Mantiqiy-nazariy umumlashtirish va taqqoslash usuli hududiy qayta tiklanish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liq hodisalar va jarayonlarni o'rganishda hamda shu asosda yangi ma'lumotlar olishda qo'llanilgan.

Krugmanning “Yangi iqtisodiy geografiya” nazariyasiga ko'ra, mintaqaning salohiyati – iqtisodiy faollikni jamlash va iqtisodiy klasterlar shakllanishi bilan bog'liq. Uning fikricha, transport xarajatlarining kamayishi va mehnat resurslarining konsentratsiyasi mintaqaning raqobatbardosh salohiyatini oshiradi [1]. Mintaqaning iqtisodiy salohiyati – bu faqat resurslar miqdori emas, balki institutlar, innovatsiyalar va ijtimoiy kapitalning sifat darajasidir. Barqaror mintaqa iqtisodiy zarbalardan keyin tez tiklana oladi va yangi rivojlanish yo'llarini topa oladi [2]. Mintaqaning haqiqiy salohiyati tabiiy resurslardan barqaror foydalanish va tabiat bilan iqtisodiyotning uyg'unligida namoyon bo'ladi [3]. Tabiiy resurslardan barqaror foydalanish, ekosistemalarni muhofaza qilish va iqtisodiy barqarorlik — mintaqaviy salohiyatdan samarali foydalanishning asosiy ekologo-iqtisodiy omillaridir [4]. Rossiyalik iqtisodchilar B. A. Rayzberg, L. Sh. Lozovskiylar ta'kidlashicha, “Mintaqaviy salohiyatni belgilaydigan omillar: resurs ta'minoti, mehnat bozori holati, infratuzilma, davlat siyosati va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar” [5]. Mintaqaning salohiyatini ishga solishda “ijodiy inson kapitali”ning roli katta. Iqtisodiy o'sish — ta'lim, innovatsiya, madaniyat va texnologiya birlashgan muhitda sodir bo'ladi [6]. Ye.A.Dinnikov mintaqa iqtisodiy salohiyatini tabiiy, mehnat, material, intellektual, moliyaviy, investitsiya va axborot omillari asosida baholagan [7]. M. Porter o'zingi ilmiy ishlarida “mintaqaviy salohiyatni belgilaydigan omillar: raqobat muhiti,

ishlab chiqarish omillari (resurslar, mehnat, kapital), talab darajasi, innovatsion muhit, klasterlar va davlat siyosati. "Porter rombi" modeli asosida hududiy iqtisodiy ustunlikni izohlagan [8]". N.O.Ablova mintaqaning iqtisodiy salohiyatni kichik va o'rta shaharlar bilan bog'liq holda o'rgangan bo'lib, umumiy iqtisodiy salohiyatni mintaqa resurslari qiymati ifodalaydi, deb ta'kidlagan. Muallif iqtisodiy salohiyat natijasini baholash asosida iqtisodiy xarajatlarni hisobga olgan holda, hudud daromadlilik darajasini o'sish imkoniyatlarini qiymat shaklida ifodalagan [9]. Mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshirishda barcha tabiiy resurslar bilan birga ijtimoiy kapital va ijodiy muhit, tashqi iqtisodiy integratsiya va barqaror rivojlanish siyosatlari ham ijobiy ta'sirga ega bo'ladi. Mintaqaning iqtisodiy imkoniyatlarini belgilovchi omillardan biri resurs salohiyati hisoblanib, undan foydalanish samaradorligini oshirish dolzarbligi ortib bormoqda. Fikrimizcha mintaqa iqtisodiy salohiyatini oshirishda birinchi navbat unga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilib ularni ustuvorlik darajasini aniqlash zarur.

METODOLOGIYA

Mintaqaviy resurs manbalari va ularning iqtisodiy salohiyatga ta'sir qiluvchi bir qator omillar mavjud: tabiiy resurslar, mehnat resurslari, moliyaviy resurslar, innovatsion va ilmiy resurslar, infratuzilmaviy resurslar, institutsional resurslar (boshqaruv salohiyati), ijtimoiy-madaniy resurslar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqaning iqtisodiy salohiyati harakatchan tuzilmaga ega bo'lgan, o'zaro bog'liq komponentlar (ya'ni mahalliy salohiyatlar) tizimi sifatida qaraladi. Bu tizim mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy hayot faoliyati barqaror rivojlanishini, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muvozanatni saqlashni ta'minlashi lozim. Mintaqaning iqtisodiy salohiyatini tadqiq etishda zarur shartlardan biri — tarixiy-geografik usulni qo'llash hisoblanadi. Mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi resurs salohiyatining rivojlanishiga, jumladan, alohida komponentlar nuqtayi nazaridan bog'liq. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, transport infratuzilmasini rivojlantirish, innovatsiyalar va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish resurs salohiyatidan yanada samarali foydalanishga yordam beradi. Mintaqaning barqaror rivojlanishi iqtisodiy va ekologik maqsadlarni birlashtirish va muvozanatlashni o'z ichiga oladi, ulardan eng muhimi energiya samaradorligini ta'minlash bo'lib, u resurslardan oqilona foydalanishning asosiy komponenti hisoblanadi. Mintaqaning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, uning investitsiya jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirish nuqtayi nazaridan har tomonlama o'rganish dolzarb bo'lgan resurs salohiyati ma'lum bir hududiy birlikning rivojlanish, investitsiyalarni jalb qilish va aholining yuqori turmush darajasini ta'minlash qobiliyatini belgilaydigan tabiiy, insoniy, iqtisodiy va moliyaviy, infratuzilma va texnologik resurslardan iborat. Resurs salohiyati bo'yicha tadqiqotlar natijalari bizga yo'qotishlarni va atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirishni hisobga olgan holda mintaqa resurslaridan iqtisodiy rivojlanish uchun oqilona foydalanish modelini aniqlash imkonini beradi. Bu ishlab chiqaruvchi kuchlarning taqsimlanishini optimallashtirish, aholi bandligi va ijtimoiy tengsizlik muammolarini hal qilish, shu bilan aholining hayot sifatini yaxshilash va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash uchun zamin yaratadi. Bunday tadqiqotlar mintaqalarga kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyatlarini va tahdidlarini hisobga olgan holda mahalliy xususiyatlar va sharoitlarni hisobga olgan holda rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Mintaqaning resurs salohiyatini o'rganish mintaqaning barqaror rivojlanishini rejalashtirish va ta'minlashning asosiy elementi hisoblanadi. Resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, investitsiyalarni rag'batlantirish va mintaqaning barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi. Mintaqaning iqtisodiy salohiyati bu hududda mavjud resurslardan (moddiy, moliyaviy, mehnat, innovatsion va boshqalar) samarali foydalanish imkoniyatini belgilaydigan ko'p omilli tizimdir. Unga ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar mintaqada shakllanadi va uning ichki rivojlanish salohiyatini belgilaydi. Ichki (endogen) omillarga iqtisodiy omillar, moliyaviy omillar, ijtimoiy omillar, innovatsion va ilmiy-texnikaviy omillar, tabiiy-ekologik omillar, institutsional va boshqaruv omillari kiradi. Tashqi (ekzogen) omillarga makroiqtisodiy va milliy siyosat omillari, global iqtisodiy omillar, siyosiy va geosiyosiy omillar, texnologik va ilmiy-texnikaviy global tendensiyalar, ekologik va global iqlim o'zgarishlari kiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ichki va tashqi omillarni o'zaro muvozanatli ta'siri orqali mintaqaning iqtisodiy salohiyati shakllanadi. Ya'ni, ichki innovatsion muhit kuchli bo'lsa, tashqi sarmoyalar oqimi ko'payishi mumkin. Demak, iqtisodiy salohiyatga ta'sir etuvchi omillar asosiy tarkibiy qismlarini ustuvorlik darajalarini beligal olish eng muhim masala hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Krugman, P. (1991). *Geography and Trade*. Cambridge, MA: MIT Press.
2. Martin, R., & Sunley, P. (2007). *Complexity Thinking and Evolutionary Economic Geography*. *Journal of Economic Geography*, 7(5), 573–601.
3. Folke, C. (2006). *Resilience: The Emergence of a Perspective for Social–Ecological Systems Analyses*. *Global Environmental Change*, 16(3), 253–267.
4. Карл Фолке (Carl Folke). *Resilience Thinking: Sustaining Ecosystems and People in a Changing World* (Island Press, 2006).
5. Б. А. Райзберг, Л. Ш. Лозовский. *Современный экономический словарь* (ИНФРА-М, 2010).
6. Ричард Флорида (Richard Florida). *The Rise of the Creative Class* (Basic Books, 2002)
7. Дынников Е.А., Милюкин А.Н. «Методические подходы к оценке ресурсного потенциала региона» // Актуальные проблемы экономики в условиях реформирования современного общества: материалы IV Международной научно-практической конференции, посвященной 140-летию со дня основания НИУ «БелГУ», Белгород.; 2016 г. 95–98 стр.
8. Майкл Портер (Michael E. Porter). *The Competitive Advantage of Nations* (Free Press, 1990)
9. Аблова Н.О. Совершенствование оценки экономического потенциала малых и средних городов при формировании программы устойчивого регионального развития. / автореферат на соискание ученой степени кандидата экономических наук (08.00.05). - Москва: Финансовый университет при Правительстве РФ, 2016.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

